

UO‘K (UDC, УДК): 82-911.1

BADIIY TARJIMADA LEKSIK MUAMMOLAR TIPOLOGIYASI²⁰

Sotiboldiyeva Gulcharos Murat qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Stajor-o‘qituvchi.
Toshkent, O‘zbekiston
gulcharos.muratovna@gmail.com
Orcid ID: 0009-0006-3654-5100

ANNOTATSIYA

Badiiy tarjima – bir tilning estetik va ma’naviy boyligini boshqa tilga o‘tkazishda o‘ta murakkab jarayondir. Ushbu maqolada badiiy tarjima jarayonida uchraydigan leksik muammolar va ularning tipologiyasi chuqur tahlil qilinadi. Ushbu maqolada asosiy e’tibor leksik birliklarning semantik nozikliklarini to‘g‘ri yetkazish, madaniy o‘ziga xosliklarni aks ettirish, sinonimlarni tanlashdagi qiyinchiliklar kabi masalalarga qaratiladi. Mazkur mavzudagi tadqiqotlarda tarjimada leksik transformatsiyalar va ularning o‘zbek tilida berilishi, shuningdek, ularni tarjima qilish usullari yetarlicha o‘zbek tilida yoritilmagan ekanligi ushbu maqolaning dolzarbligi taqazo etadi. Xolbuki, hozirgi paytda jahon adabiyoti durdonalaridan xabardor bo‘lish davr talabi bo‘lib turgan vaqtda, badiiy asarlarning tarjimalarining amaliy ahamiyatini hisobga olgan holda ingliz tilidagi materiallarni o‘zbek tiliga tarjima qilishga katta ehtiyoj sezilmoqda.

KALIT SO‘ZLAR

Badiiy tarjima, leksik muammolar, tarjima tipologiyasi, madaniy o‘ziga xoslik, frazeologizmlar, metaforalar, tarjimon mahorati, estetik boylik, semantik noziklik, ijodiy yondashuv.

Received: November 18, 2024

Accepted: December 25, 2024

Available online: March 1, 2025

²⁰ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Sotiboldiyeva G.M. Badiiy tarjimada leksik muammolar tipologiyasi. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 1. — B. 190-200

ТИПОЛОГИЯ ЛЕКСИЧЕСКИХ ТРУДНОСТЕЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ

Сотиболдиева Гулчарос Мурат кизи

преподаватель-стажер

Узбекский государственный

университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан.

gulcharos.muratovna@gmail.com

Orcid ID: 0009-0006-3654-5100

АННОТАЦИЯ

КЛЮЧЕВЫЕ

СЛОВА

Художественный перевод – это очень сложный процесс передачи эстетического и духовного богатства одного языка при помощи другого языка. В данной статье подробно анализируются лексические проблемы, возникающие в процессе художественного перевода, и их типология. Основное внимание уделяется трудностям правильной передачи смысловых оттенков лексических единиц, отражения в переводе культурных особенностей и выбора синонимов. Актуальность данной статьи заключается в том, что лексические трансформации при переводе на узбекский язык, а также использование их основных разновидностей для достижения эквивалентности перевода недостаточно освещены в узбекском переводоведении. Однако в настоящее время одна из важнейших потребностей состоит в том, чтобы быть в курсе шедевров мировой литературы. Учитывая большую практическую значимость переводов на узбекский язык лучших образцов зарубежной литературы, необходимость качественного перевода англоязычных источников сохраняет свою актуальность.

Художественный перевод, лексические трудности, типология перевода, культурная самобытность, фразеологизмы, метафоры, мастерство переводчика, эстетическое богатство, семантические тонкости, творческий подход.

THE TYPOLOGY OF LEXICAL DIFFICULTIES IN LITERARY TRANSLATION

Sotiboldiyeva Gulcharos Murat qizi

Uzbekistan state world languages university

Teacher

Tashkent, Uzbekistan.

gulcharos.muratovna@gmail.com

Orcid ID: 0009-0006-3654-5100

ABSTRACT

The process of literary translation is highly intricate, involving the transmission of aesthetic and spiritual depth from one language to another. This article aims to provide a comprehensive and in-depth analysis of the various challenges that arise when translating literature, focusing on the complex and diverse lexical obstacles that may be encountered and their subsequent categorization. The primary emphasis is placed on the challenges of accurately conveying the semantic nuances of lexical units, reflecting cultural characteristics in the translation process, and choosing suitable synonyms. The significance of this article lies in the inadequate coverage of lexical transformations and the use of main varieties in Uzbek translation studies to achieve translation equivalence in translations into Uzbek. Currently, one of the most essential requirements is to thoroughly understand masterpieces in world literature. Considering the significant practical importance of translating exemplary foreign literature into Uzbek, the necessity for exceptional translations of English-language sources remains pertinent.

KEY WORDS

Literary translation, lexical challenges, translation typology, cultural uniqueness, idioms, metaphors, translator's skill, aesthetic richness, semantic subtleties, creative approach.

KIRISH

Dunyo tilshunosligida hozirgi kunda badiiy adabiyot tarjimalari va ularning zamonaviy tilshunoslik sohalaridagi tadqiqiga keng e'tibor qaratilmoqda. Chunki bir millat yoki madaniyatga tegishli badiiy adabiyot o'sha millatning madaniyatidagi qirralarni o'zida aks ettiradi. Shuning uchun ham, jahon badiiy adabiyoti durdonalarni tadqiq etish nafaqat o'quvchini estetik didini oshiradi, shu bilan birgalikda o'sha xalq madaniyati, urf-odatlari va qadriyatlari to'g'risida ma'lumot beradi.

ASOSIY QISM

Maqolaning ilmiy dolzarbligi va yangiligi tarjima mutaxassisligi yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga badiiy tarjima jarayonida leksik transformatsiyaga oid nazariy bilimlar naqadar muhimligini ham nazariy, ham amaliy yaxlit holda to'plash va o'zbek tilida bayon qilinishi usullarining tadqiqidan iboratdir. Ushbu maqolaning maqsadi esa, ingliz tilidan o'zbek tiliga badiiy tarjimada leksik transformatsiyalarni qo'llanishini tadqiq qilishdan iborat bo'lib, bu maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- tarjima transformatsiyasi tushunchasining mazmun-mohiyatini tahlil qilish va tasniflash;

- badiiy tarjimaning leksik muammolari tipologiyasi bilan tanishish, tarjimada transformatsiyalardan foydalanish omillarini aniqlash;

- ingliz tilidan o'zbek tiliga badiiy tarjimada ekvivalentlik transformatsiyasidan foydalanish masalalarini muhokama qilish;

- badiiy tarjimada aniqlashtirish va umumiyashtirish transformatsiyalarni qo'llash.

Hozirgi davrda tarjima nazariyasining turli aspektlarini qamrab oluvchi juda ko'p ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, A.V.Fedorov, A.S.Barxudarov, A.D.Shveyser, V.Koptilov, V.N.Komissarov, Ya.I.Retsker, P.N'yumark, A.Mark, L.Kelli hamda taniqli o'zbek olimlari G.Salomov, Q.Musayev, R.Fayzullayeva, Sh.Safarov, O.Mo'minov, N.Qambarov, M.Xolbekov, Sh.Sirojiddinov, G.Odilova,

I.Tuxtasinov, U.Yo‘ldoshev va boshqa olimlar fan taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shganlar. (Odilova G., Mahmudova U., 2012, 116)

Tadqiqot mavzusining amaliy natijalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- tadqiqot ishi mashhur jahon adabiyoti na‘munalaridan biri va uning o‘zbek tiliga tarjimasi tahliliga asoslanadi va shu bilan birga leksik transformatsiyalar, ularning turlari haqida ham talabalarga nazariy bilim beradi;
- tarjimada transformatsiya va uning turlari hamda leksik transformatsiyalar haqida ma‘lumot beradi;
- bundan tashqari tilshunoslikdagi shu sohadagi yaratilgan bir nechta asarlar haqida so‘z boradi hamda tilshunoslikning transformatsiya sohasini o‘rganayotgan yoki ilmiy ish olib borayotgan mutaxassislarga boshlang‘ich qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Badiiy uslub-tilning kommunikativ va estetik vazifalari birligi bilan boshqa uslubga xos unsurlardan keng foydalanishi, ekspressiv va tasviriy vositalarning ko‘p ishlatilishi, so‘zlarning obrazli, ko‘chma-metaforik qo‘llanishi va shu kabi belgilari bilan ajralib turadi. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo‘lgan barcha lug‘aviy birliklarning ishtirok etaverishi va ularning muhim bir vazifaga-estetik vazifani bajarishga xizmat qilishini badiiy nutq uslubining o‘ziga xos xususiyati deb qarash kerak bo‘ladi, chunki ana shunday imkoniyat boshqa vazifaviy uslubda chegaralangandir.

O‘zbek olimlaridan U.Yo‘ldoshev o‘zining “*Badiiy tarjimani o‘qitishning lingvistik va metodologik asoslari*” nomli monografiyasida tarjima usullari terminini qo‘llagan va 32 tarjima transformatsiyalarining tavsifini yoritib bergan. Monografiya muallifi Vin’e va Darbal’ne, P.N’yumark, E.Aznaura, V.Komissarov tomonidan tarjima transformatsiyalari tasnifini quyidagicha keltirib o‘tadi. (1-jadvalga qarang.)

1-jadval.

<i>Vin'e va Darbal'ne</i> (Vinay, J. Darbelnet., 1977, 51)	<i>P.Nyumark</i> (Newmark, 1988, 80)	<i>E. Aznaurova</i> (Aznaurova E.S, Abduraxmonova Kh.I, 1989, 23)	<i>V. Komissarov</i> (Komissarov V. 1990. 172)
1.so‘z almashtirish, 2.kal’kash, 3.gaplarni birma-bir tarjima qilish, 4.transpozitsiya, 5.modulyatsiya, 6.ekvivalentlik, 7.moslashtirish, 8.kompensatsiya, 9.jamlash va qismlarga ajratish, 10.kengaytirish va toraytirish, 11.kuchaytirish va kamaytirish, 12.eksplisit va implisit. 13.umumlashtirish.	1.transferensiya, 2.naturalizatsiya, 3.madaniy ekvivalentlik, 5.komponent tahlil, 6.sinonimlik, 7.to‘liq tarjima, 8.transpozitsiyalar, 9.modulyatsiya, 10.rasmiy uslub tarjimasi, 11.o‘rnini to‘ldirish, 12.perifraza, 13.birlashma, 14.eslatmalar.	1.antonimik tarjima, 2.kompensatsiya, 3.so‘z qo‘shish, 4.so‘z tushirib qoldirish, 5.almashtirish, 6.so‘zma-so‘z, 7. analog tarjima, 8.tasviriy tarjima.	1.transkripsiya, 2.ko‘paytirish, 3.so‘z o‘zlashtirish, 4.anqlik kiritish, 5.umumlashtirish, 6.modulyatsiya, 7.so‘zma-so‘z tarjima, 8.jumla tuzilishini o‘zgartirish, 9.grammatik almashtirishlar, 10.antonimik tarjima, 11.eksplikasiya, 12.kompensatsiya

Mark Tvenning “Shahzoda va gado” (Mark Tven, 1997, 120) asarida ko‘plab tarixiy so‘zlar va terminlar uchraydi. Bu so‘zlar asarning o‘ziga xosligini va tarixiy davrni yoritishda muhim rol o‘ynaydi. Quyida asarda uchrashi mumkin bo‘lgan ba’zi tarixiy so‘zlarni tarjima qilganmiz:

- *Liveri*: Qirollik xizmatkorlari va rasmiylari kiyadigan maxsus kiyim.

- *Zindon (Dungeon)*: Oʻrta asrda foydalanilgan qamoqxona yoki qoʻriqlanadigan joy.
- *Geraldika*: Oʻrta asrda knyazlik va qirollik oilalarining ramzlari va nishonlari.
- *Uch oyli qonun (Sumptuary Laws)*: U yoki bu toifa odamlar qanday kiyim kiyishi mumkinligini belgilovchi qonunlar.
- *Gersog (Duke)*: Yuqori martabali zodagon.
- *Yigit (Squire)*: Yosh zodagon yoki ritsarning yordamchisi.

Bu soʻzlar Mark Tvenning asarida oʻrta asr Angliya hayotini va undagi ijtimoiy, siyosiy tuzumni ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu soʻzlar orqali oʻquvchilar oʻsha davrning anʼanalarini, urf-odatlarini va ijtimoiy tuzilishini yaxshiroq tushunib olishlari mumkin.

Adabiy tilda dialektizmlar, jargonlar, varvarizmlardan, dagʻal soʻzlardan foydalanish maqsadga muvofiq boʻlmagani holda ularni badiiy uslubda oʻrni bilan qoʻllash mumkin. Vazifaviy uslubning hech birida til oʻzining tuzilish jihatlari, lugʻat tarkibi, yaʼni soʻzning maʼno boyligi va rang-barangligini, toʻgʻri va koʻchma maʼnolarni badiiy nutq uslubidagichalik namoyish qila olmaydi, grammatik qurilishi, yaʼni gaplarning barcha tiplari bilan isht irok eta olmaydi. Badiiy adabiyotning barcha janrlarida soʻz ishlatish va soʻz tanlash imkoniyatlariga bir mezon bilan yondashib boʻlmaydi. Har qaysi adabiy janrning tasvir usuli, soʻz tanlash yoʻsini shu janrdagi asarning umumiy mavzusiga, janr turiga bogʻliq boʻladi. (Qoʻngʻurov R., Begmatov E., Tojiyev Y.,1992,75)

Mazkur ishning nazariy ahamiyati esa, transformatsiya orqali qilingan badiiy tarjimalarning bugunga qadar erishgan yutuqlarini oʻrganish, ularni umumlashtirish, uning istiqboli haqidagi nazariy qarashlarni ilmiy tahlil etishga qaratilgan. “*Badiiy tarjimada aniqlikka erishish faqat yozuvchining individual uslubini aks ettirish orqali amalga oshadi. Uslubni berolmagan tarjimon aniqlikni daʼvo qilolmaydi*” (Salomov Gʻ., Komilov N.,1979,113)

Jek Londonning “Martin Eden” (London J., 1909, 82) asaridagi arxaik soʻzlar va ularning zamonaviy ekvivalentlarini quyidagicha tarjima keltiramiz:

1. Arxaik so‘z: *afore*

- Zamonaviy ekvivalent: before
- Misol: “He had never felt such a pain afore.” → “He had never felt such a pain before.”

2. Arxaik so‘z: *betwixt*

- Zamonaviy ekvivalent: between
- Misol: “Betwixt him and the books, there was a strange connection.” → “Between him and the books, there was a strange connection.”

3. Arxaik so‘z: *hither*

- Zamonaviy ekvivalent: here
- Misol: “He came hither in search of knowledge.” → “He came here in search of knowledge.”

4. Arxaik so‘z: *thou*

- Zamonaviy ekvivalent: you
- Misol: “Thou art a scholar.” → “You are a scholar.”

5. Arxaik so‘z: *thy*

- Zamonaviy ekvivalent: your
- Misol: “Thy words are wise.” → “Your words are wise.”

6. Arxaik so‘z: *ere*

- Zamonaviy ekvivalent: before
- Misol: “Ere the dawn, he was already at work.” → “Before the dawn, he was already at work.”

7. Arxaik so‘z: *whilst*

- Zamonaviy ekvivalent: while
- Misol: “He read the book whilst she was asleep.” → “He read the book while she was asleep.”

Bu so‘zlar adabiy asarlarning tarixiy va madaniy kontekstini saqlab qolish uchun muhimdir, ammo zamonaviy o‘quvchilarga ularni tushunishni osonlashtirish uchun ular zamonaviy ekvivalentlariga aylantirilishi mumkin. Qadimgi tarjimonlar

original asarga va uni ijod qilgan avtorga katta hurmat bilan qaraganlar. Original asarning ma'nosi va strukturasini, syujet va kompozitsiyasini, xarakter va obrazlarini buzmasdan tarjima etishga tirishganlar. Badiiy jihatdan yuqori darajada tarjima etilgan asarlar uz qimmatlarini to'la saqlagan holda davr va asrlar osha bizga yetib keldilar. (Tarjima san'ati (maqolalar to'plami), 1980, 56) Shu o'rinda Sotti Husayniyning badiiy tarjima xususida bildirgan fikrlarini keltirib o'tsak. *“Badiiy tarjima sohasida shunga erishmog'imiz kerakki, har bir yozuvchi biron bir badiiy asarni tarjimaga olar ekan, unga xuddi original asar yozayotganday sevib kirishsin. Badiiy tarjima-badiiy sharaflı ish bo'lib, bilim va san'atkorlik talab etadi”*. (Sotti Husayn., 1974, 89)

Keltirilgan fikrlar tarjima strategiyalari, ya'ni transformatsiyalarini amalga oshirishda duch keladigan to'siqlarni, ikki til me'yorlaridagi qarama-qarshiliklarni yengish imkonini beradi. Bu yerda to'siq va qarama-qarshiliklar deganda nafaqat tildagi farqlar, balki adabiyotlardagi madaniyatlararo turli xil qarashlar, an'analar va shu kabilar nazarda tutiladi. Bu yerda agar gap badiiy matn tarjimasi ustida ketsa muallifning muloqot intentsiyasi (maqsadi), tarjimonning muloqot intentsiyasi, ikki madaniyat o'rtasidagi o'xshashlik va farq qiluvchi jihatlarni “neytrallashtirish” jarayonini tarjimon vositachi sifatida amalga oshirishi lozim. tarjima jarayonida ekstralingvistik omillarni ham hisobga olish muhim hisoblanadi, chunki tarjimaning adekvat chiqishida uning ahamiyati beqiyos. Aksariyat olimlar (Z.D.Livovskaya, V.N.Komissarov, At.D.Shveytser, Ya.I.Retsker, Ye.Nida, R.Newmark va boshqalar) tarjimada tafakkur qilish dinamikasini hamda mazmun ekvivalentining muloqot mezonlarini o'rganish nazariy va amaliy jihatdan ahamiyatli ekanligi ta'kidlashgan. Shu asosida tarjimada modellashtirish metodi paydo bo'lgan. Bu tarjimonning asliyat matnidan tarjima matniga o'tishda bajariladigan tafakkur jarayonlarini o'z ichiga oladi. (Raupova, 2022, 110)

XULOSA

Xulosa o'rnida, badiiy matnlarning leksik muammolari va ularning tahlili bilan bog'liq turli aspektlarni o'rganish doirasida, badiiy matnlar tilning badiiy ifoda

vositasi ekanligi, unda leksik elementlar (soʻzlar, iboralar, maʼno qatlamlari) muhim rol kasb etishi, leksik muammolar, asosan, soʻzning maʼno oʻzgarishi, kontekstga bogʻliq maʼno yuki, yangi soʻzlar va iboralar yaratish bilan bogʻliq natijalar olindi. Maqolada bu muammolarni tahlil qilishda badiiy matnlarning estetik va ideologik maqsadlari inobatga olinib tahlil etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Aznaurova E.S., Abdurakhmonova Kh.I., *Translation Theory and Practice*. Tashkent: Oʻqituvchi. -1989. - 78 p.
2. Komissarov V., *Translation Theory*. Moscow: IMO. – 1990. -180 p.
3. London J. (1909) Marten Eden. -T.: 1909.- 150 p.
4. Newmark P., *Approaches to Translation*. Hertfordshire: Prentice Hall. -1988. - 110 p.
5. Odilova G., Mahmudova U., *Uzbek Translators and Literary Translations*. Tashkent: Yangi asr avlodi. -2012. -180 p.
6. Qoʻngʻurov R., Begmatov E., Tojiyev Yo., *Speech Culture and the Fundamentals of Stylistics*. Tashkent. – 1992. - 128 p.
7. Raupova. *Extralinguistic Factors of the Translator. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, VOLUME 2 | ISSUE 6*. ISSN 2181-1784. 2022. Scientific Journal Impact Factor.
8. Salomov Gʻ., Komilov N., *Bridges of Friendship*. Tashkent. – 1979. - 130 p.
9. Husayn Sotti. *Selected Works*. Tashkent. -1974. - 95 p.
10. *The Art of Translation* (Collection of Articles). Tashkent: -Gʻ.Gʻulom Literature and Art Publishing House. -1980. -200 p.
11. Twain, Mark, *The prince and the pauper*. New York: Penguin Books, 1997.
12. Vinay, J., J. Darbelnet. *Comparative Stylistics of French and English*. Paris: Georgetown University Press. -1977. - 180 p.

REFERENCES

1. Aznaurova E.S., Abdurakhmonova Kh.I., (1989) Translation Theory and Practice. Tashkent. Uqituvchi. 78 p.
2. Komissarov V., (1990) Translation Theory. Moscow. IMO. 180 p.
3. London J. (1909) Martin Eden. Tashkent. 1909. 150 p.
4. Newmark P., (1988) Approaches to Translation. Hertfordshire. Prentice Hall. 110 p.
5. Odilova G., Mahmudova U., (2012) Uzbek Translators and Literary Translations. Tashkent. Yangi asr avlodi. 180 p.
6. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo., (1992) Speech Culture and the Fundamentals of Stylistics. Tashkent. 128 p.
7. Raupova, (2022) Extralinguistic Factors of the Translator. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, VOLUME 2 | ISSUE 6. ISSN 2181-1784. Scientific Journal Impact Factor.
8. Salomov G., Komilov N., (1979). Bridges of Friendship. Tashkent. 130 p.
9. Sotti Husayn, (1974) Selected Works. Tashkent. 95 p.
10. The Art of Translation (Collection of Articles). (1980) Tashkent: G'. G'ulom Literature and Art Publishing House. 200 p.
11. Twain, Mark, (1997) The Prince and the Pauper. New York: Penguin Books, 1997.
12. Vinay, J., J. Darbelnet. (1977) Comparative Stylistics of French and English. Paris: Georgetown University Press. 180 p.